



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 1-iyul

VII-9-67-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining Farg‘ona tumanidagi ijrosi haqida**

Butun mamlakat miqyosida «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, xususan 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida tumanimiz bo‘ylab 14 turdag‘i 635 ming dona manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari ekish rejallashtirilgan bo‘lib amalda 824 ming 840 dona manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlariekilib rejaga nisbatan 123.4 foizga bajarildi.

Jumladan, fermer xo‘jaliklari va paxtachilik-g‘allachilik klasterlarning dalalari chetlarida ihota daraxtzorlarni barpo qilishga prognoz rejasi 10,0 ming dona bo‘lib, amalda 85 ming 500 dona ekilganligi kiritilib reja bajarilgan, bog‘, tok va tutzorlar barpo etish yerlariga prognoz rejasi 6,0 ming dona, amalda 60 ming dona ekilganligi kiritilib reja bajarilgan, yangi tutzorlar barpo etishga 376,0 ming dona, amalda 376 ming dona ekilgan bo‘lib, bugungi kunda “Farg‘ona Agro-Pilla” MChJ mas‘ul etib belgilanishi qaramasdan yetarlicha ishlarni tashkil etmagan. Bugungi kunda ushbu korxonaga bo‘lim tomonidan ogohlantirish xati berilgan, MFY hududlari va aholi tomorqalari atrofidagi hududlarga prognoz rejasi 110,0 ming dona bo‘lib, amalda 117 ming 850 dona kiritilib reja bajarilgan, Obodonlashtirish boshqarmasi hududlariga prognoz rejasi 14,0 ming dona bo‘lib, amalda 14 ming 110 dona ekilgan, o‘rmon fondi yerlarida o‘rmonlar barpo etishga prognoz reja 8,0 ming dona bo‘lib amalda 8 ming 530 dona ekilgan, avtomobil yo‘llari va temir yo‘llar bo‘ylarida prognoz reja 13,0 ming dona bo‘lib, 13 ming dona ekilgan, daryolar, kanallar, ariqlar va zovurlar bo‘ylariga prognoz reja 25,0 ming dona bo‘lib, 28 ming 230 dona ekilgan, atrofga ta’sir xavfi bo‘yicha yuqori va o‘rta darajadagi xavfli toifalarga mansub sanoat korxonalari tomonidan “yashil belbog”lar barpo etishga prognoz reja 27,0 ming dona bo‘lib, amalda 25 ming dona ekilgan, mакtabgacha va maktab ta’limi muassasalari hamda ularga tutash hududlarda prognoz reja 5,0 ming dona bo‘lib, amalda 9 ming 60 dona ekilgan, sog‘liqni saqlash ob’ektlari hamda ularga tutash hududlarga prognoz reja 4,0 ming dona bo‘lib, amalda 6 ming dona ekilgan, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar muassasalari hamda ularga tutash hududlarda prognoz reja 6,0 ming

dona bo‘lib, amalda 17 ming 470 dona ekilgan, tijorat banklari prognoz reja 4,0 ming dona bo‘lib, amalda 5 ming dona ekilgan, chiqindi poligonlari atrofida ihota daraxtzolarni barpo etishga prognoz reja 2,0 ming dona bo‘lib, amalda 2 ming dona ekilgan, vazirlik, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va korxonalar hamda ularga tutash hududlarga prognoz reja 25,0 ming dona bo‘lib, amalda 50 ming dona manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari ekilgan.

Shuningdek, Navro‘z, Dilkusho, Vodil, Xosilot, Yangi asr va Beruniy mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘rganilganda, mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan yetarli ishlar amalga oshirilganligi, manzarali va mevali ko‘chatlari ekilganligi aniqlandi. Ushbu ekilgan daraxt ko‘chatlarini parvarishlash, turli xil zararkunandalarga qarshi kurashish, sug‘orish ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirish yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Tumanning Do‘stlik va Hosilot MFY hududlarida yirik mevali bog‘lar tashkil etilgan. Misol uchun Do‘stlik MFYda 200 gektarga intensif usulda o‘rik va shaftoli bog‘i, Hosilot MFY hududida 60 gektarga malina va smarodinaning oliv navli buta ko‘chatlari ekildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-199-sonli Farmoni hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

## **Q A R O R Q I L A D I**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining Farg‘ona tumanidagi ijrosi yuzasidan tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i U.Toshbekovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Qodirxonov)ga:

daraxtzorlar hamda butazorlarni rivojlantirish, ekilgan har bir daraxtni parvarishlash, daraxtlarni shikastlantirmaslik va nobud qilmaslik uchun nazorat o‘rnatish;

mahallalar, aholi punktlari, ko‘p qavatli binolar va hovlilar, guzarlar, xiyobonlar, ziyyaratgohlar va qabristonlar, ichki va magistral yo‘llar bo‘ylab bo‘sh turgan maydonlarga ko‘chatlarni ekish tadbirlarining uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini tashkil etish;

ko‘chat ekilgan obyektlarga mas’ullarni biriktirish, ko‘chatlarni doimiy parvarishlash, ularni zararkunandalardan himoya qilish va payhon etilishining oldini olish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

**3.** Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i (U.Toshbekov)ga:

mavjud va ekilayotgan daraxt hamda ko‘chatlarni xatlovdan o‘tkazib, ularning turi va soni, ko‘chat ekilgan hududning aniq manzili va mas’ullari to‘g‘risida elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

ko‘chatlarning ekish sifati, ko‘karishi, parvarishlash ishlarining borishi bo‘yicha muntazam nazorat tizimini o‘rnatib, amalga oshirilgan ishlarning natijasi bo‘yicha tuman hokimligiga ma’lumot taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

**4. Tumandagi barcha korxona va tashkilotlar rahbarlariga:**

bino va inshootlarining atrofidagi hududlarda kichik yashil makon, landshaftlar tashkil qilish choralarini ko‘rish hamda har bir ekilgan mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlar va sug‘orish ishlari amalga oshirilishini ta’minlash;

har yili kuz va bahor mavsumlarida ko‘chat ekish va saqlash ishlarini tashkil etish bo‘yicha “Yashil haftalik” tadbirlari o‘tkazib borilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

**5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:**

dala va aholi punktlarida xazon, o‘simlik qoldiqlari va turli xildagi chiqindilarni yoqib yubormaslik yuzasidan aholi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini muntazam amalga oshirish;

o‘zları saylangan hududda “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida qilingan ishlar yuzasidan deputatlik nazorati o‘rnatsinlar.

**6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Xamdamov), Korruotsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqliknı ta’minlash va huquqiy masalalar bo‘yicha doimiy komissiya (Q.Makarov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (M.Qodirxonov) zimmalariga yuklatilsin.**

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH